

FAXRUDDIN O'ZJANDIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

*Ikromjonov Akmaljon Maxmudjonovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Faxruddin O'zjandiy va u kishining shogirdlari hanafiy mazhabining asosiy usul qoidalari ishlab chiqgach, ulardan oldingi Faxriddin Roziy, Al-Xassof, At-Tahoviy va Al-Karxiylardek mutaqaddim faqihlar mazhab asoschilari joriy qilgan qoidalarni jamlab usul qoidalari majmuini yaratishdi. Maqolada so'z yuritadigan Faxruddin O'zjandiy singari mutaaakhir olim esa o'zlaridan oldingi mutaqaddim faqihlarning joriy qilgan qoida va tamoyillarini atroficha yoritib berildi. Ularni dalillab, eng sahih qovollar bilan quvvatlab sharhlashdi. Eng asosiysi bu ma'lumotlarni eng loyiq bob va bo'limlarga taqsimlab, hanafiy mazhabi usul ul-fiqh ilmini ta'lim beradigan tengsiz asarlarni yozib qoldirishdi. Mazkur maqolada Hanafiy mazhabining mana shunday so'nggi avlod eng zabardast olimi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hanafiy mazhabi, usul al-fiqh, Faxruddin O'zjandiy, Shihobuddin Marjoniy, Abu Xanifa, ibn Kamol Bosho, ibn Qutlubug'o.

ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ФАХРУДДИНА УЗЖАНДИ

*Икромжанов Акмалжон Махмуджанович- независимый исследователь
Международная исламская академия Узбекистана*

АННОТАЦИЯ. После того, как Фахруддин Озданди и его ученики разработали основные правила метода ханафитского мазхаба, более ранние юристы, такие как Фахруддин Рazi, Аль-Хасоф, Ат-Тахави и Аль-Кархи, создали набор методических правил, объединив правила, введенные основателями школы. Фахруддин Озданди, известный ученый, выступающий в статье, подробно разъяснил правила и принципы, представленные до него правоведами. Они доказали их и истолковали самыми достоверными аргументами. Самое главное, они разделили эту информацию на наиболее подходящие главы и разделы и записали бесподобные произведения, которым учит ханафитская школа усуль-уль-фикха. В данной статье рассказывается о наиболее выдающемся учёном последнего поколения ханафитской секты.

Ключевые слова: Ханафитский мазхаб, усуль аль-фикх, Фахруддин Озданди, Шихабуддин Марджани, Абу Ханифа, ибн Камаль Башо, ибн Кутлубуга.

LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF FAKHR AL-DĪN UZJANDI

*Ikromjonov Akmaljon Mahmudjonovich
Independent researcher of International Islamic Academy of Uzbekistan*

Abstract. After Fakhr al-Dīn Uzgendi and his students developed the main rules of method of the Hanafī madhhāb, earlier jurists such as Fakhr al-Dīn Rāzī, Al-Hasṣāf, At-Tahāwī and Al-Karkhī created a set of rules of method by combining the rules introduced by the founders of the madhhāb. Fakhr al-Dīn Uzgendi , a famous scientist who speaks in the article, explained in detail the rules and principles introduced by the jurists before him. They proved them and interpreted them with the most authentic arguments. Most importantly, they divided this information into the most appropriate chapters and sections, and wrote down the incomparable works that teach the Hanafī school of uṣūl al-fiqh. This article talks about the most outstanding scholar of the last generation of the Hanafī sect.

Key words: Ḥanafī madhhāb, uṣūl al-fiqh, Fakhr al-Dīn Uzgendi , Shihāb ad-Dīn Marjānī, Abū Ḥanīfah, ibn Kamāl Pāshā, Ibn Kuṭlūbughā.

Kirish. Qoraxoniylar davrida yetishib chiqqan faqihlar Movarounnahr mintaqasida hanafiy mazhabining rivojlanishida katta xizmat qilganlar. O'sha davrning yetuk faqihlari o'zlaridan so'ng hanafiy fiqhi bo'yicha nodir asarlar yozib qoldirganlar. Aynan shu davrda ijod qilgan va hanafiy faqihlari ichida alohida o'ringa ega bo'lgan alloma Faxruddin O'zjandiydir.

Tahlil va natijalar. Faxruddin O'zjandiyning to'liq ismi Hasan ibn Mansur ibn Abul-Qosim Mahmud ibn Abdulaziz ibn Abdur-Razzoq al-O'zjandiy al-Farg'oniyidir[1]. Movarounnahda VI/XII asrda yashab ijob qilgan Faxruddin O'zjandiy hanafiy mazhabining yetuk faqihlaridan biri hisoblanadi[2].

Faxruddin O‘zjandiying tavallud topgan sanasi tabaqot kitoblarida ko‘rsatilmagan. Uning ustozlaridan bo‘lgan Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ismoil ibn Ahmad ibn Shis ibn Hakam as-Saffor 534/1139 yili [3] vafot etgani, uning o‘zi esa 592/1195 yili dunyodan ko‘z yumgani haqidagi ma’lumotlardan kelib chiqib, ustozdan fiqh ilmini o‘rgana olishi uchun 14-15 yoshlarda bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Bundan kelib chiqib, Qozixon 1124-22 yilda tavallud topgan degan fikrni ilgari surish mumkin.

Faxruddin O‘zjandiy hijriy 592-yili, Ramazon oyining o‘n beshinch kuni, milodiy 1195 yili, 12 avgustda Buxoroda vafot etgan [4] va o‘sha yerdagi “Al-Quzot as-Sab’ā” (Yetti qozi) qabristonida dafn qilingan [5]. Qozixonning 1122-25 yilda tavallud topib, 1195 yili vafot etganidan kelib chiqib, taxminan 70-73 yoshda vafot etganini aytish mumkin.

Tabaqot kitoblarida u kishi “Al-Imom Al-kabir” (buyuk imom), “Al-Olim an-Nihrir” (yetuk olim), “Bahr” (dengiz), “G‘avvos fil-ma’oni” (ma’nolarga chuqur kira oluvchi), va “Fahhoma” (teran tushunuvchi), Abul-Mafoxir”, “Abul-Mahasin” kabi unvonlar bilan zikr qilingan[6].

Islom huquqi tarixida ushbu faqih ko‘proq “Qozixon”, “Faxruddin” va “Faxrul-milla” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Tabaqot kitoblarida uning rasmiy qozilik vazifasini bajarganligi haqida aniq ma’lumot berilmaydi. Biroq, qozilik rasmiy mansab bo‘lgani va u faqat qozilik vazifasini bajarganlarga berilishini e’tiborga olinsa, Qozixon Qoraxoniyalar davrida qozilik mansabida faoliyat ko‘rsatgan, degan xulosa qilish mumkin. Sharqshunos olim A.Mo‘minov [7] Qoraxoniyalar Qozixonni Buxoroda qozilik vazifasiga tayinlanganlari haqida fikr bildiradi. Allomaga berilgan “Qozixon” laqabining “hukm chiqaruvchi ma’nosī”dagi arabcha يضّ اقّى و سُلْطَنْ وَ خَوْجَنْ” ma’nolarini anglatuvchi turkiy “xon” so‘zlaridan tashkil topgan va “Xon Qozisi”, deb tarjima qilinishi fikrimizga dalildir.

Qozixonning talabalaridan bo‘lgan Abul-Mahamid Mahmud Al-Hasiriyning [8] ustozini: “U kishi bizning sayyidimiz, Qozi, Imom, Ustoz, “Faxrul-milla” (Millat faxri), “Ruknul-islom” (Islom rukni), “Miftish-sharq” (Sharqning muftiysi), “Biqiyyatus-salaf” (Salafi solihlarning oxirgisi)” bo‘lgan deya ta’riflagani [9] fikrimizni tasdiqlaydi.

Ahmad ibn Sulaymon ibn Kamol Bosho (vaf. 940/1533 y.) o‘zining “Tabaqot al-mujtahidin” nomli asarida faqihlarning yetti tabaqasini va har bir tabaqa faqihlarining xususiyatlarini bayon qilib, Faxruddin O‘zjandiyni (vaf. 592/1195 y.) Abu Bakr Ahmad ibn Amr Al-Xassof (vaf. 261/874 y.), Abu Ja’far Ahmad ibn Muhammad At-Tahoviy (229/843-321/933 yy.), Abul-Hasan Ubaydulloh ibn Husayn Al-Karxiy (260/873-340/951 yy.), Shamsul-a’imma Abdulaziz ibn Ahmad Al-Halvoniy (vaf. 449/1057 y.), Shamsul-a’imma Muhammad ibn Ahmad As-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.) va Faxrul-Islom Pazdaviy (vaf. 482/1089 y.) va boshqalar qatorida uchinchi tabaqa vakili o‘laroq zikr qiladi[10].

Mazkur tabaqa يف نِيَدَهْتْ جَمْلَانْ قَبَطْ “Masalada mujtahid bo‘lgan faqihlar” tabaqasi deb atalib, Ibn Kamol Boshoning aytishicha, unga mansub faqihlar hanafiy mazhabini asoschisi Abu Hanifadan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha ijтиҳод qila olish darajasidagi mujtahid faqihlardir. Ushbu tabaqa faqihlari mazhab asoschisiga usul [Usul – Abu Hanifa tomonidan ishlab chiqilgan va uning Qur’on va hadisdan shar’iy hukmlarni ishlab chiqishda qo‘llagan usul, metod va qoidalari] qoidalari va furu’[Furu’ – ishlab chiqilgan masalalar, fatvolar.] masalalarida qarshi fikr ayta olmaydilar. Lekin ular Abu Ḫanifa o‘rnatgan qoidalari asosida, undan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha dalillardan hukmlarni ishlab chiqadilar[11].

Quduriyning [12] (362/972-428/1036 yy) “Muxtasar” asarining matnnini tanqidiy o‘rgangan, tas’hih [Mantnni tas’hih qilish: matnni tanqidiy o‘rganish va unga nisbat berilgan jumlalarning sahib yoki sahib emasligini tekshirish.] va tahrir qilgan Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o (802/1399-876/1474 yy.) Qozixonning “Muxtasar” matni bo‘yicha kiritgan tuzatishlari va tahrirlarini eng ishonchli va eng sahib deb aytgan [13]. Shuningdek, Ibn Qutlubug‘o “Qozixonning tuzatishlari boshqalarning tuzatishlaridan muqaddam qo‘yiladi, chunki u “faqih an-nafs” (nafs fiqhining olimi)dir” degan [14]. Shuningdek, Hoji Xalifa Faxruddin O‘zjandiying fatvo va qarashlari hukm va fatvo chiqarish maqomida bo‘lganlar uchun tavsiya etilishini aytib o‘tgan [15].

XIX asrning yetuk tadqiqotchi olimlaridan bo‘lgan Shihobuddin Marjoniy (1233/1817-1306/1888 yy.) Ibn Kamol Poshoning mujtahidlar darajalari xususidagi tartibini tanqid ostiga olib, har bir tabaqa borasida to‘xtalib o‘tgan. Marjoniy “mazhab ichida mujtahidlar” [Ibn Kamol Poshoga ko‘ra, ikkinchi tabaqa “mazhab ichida mujtahidlar” tabaqasi deb ataladi. Ushbu tabaqa faqihlari ustoz o‘rnatgan usul qoidalari asosida dalillardan hukmlarni chiqara olishadi. Ular ustozga ayrim furu’ hukmlarida qarshi chiqalishsada, unga usul qoidalari taqlid qilishadi][16] tabaqasi deb atalgan ikkinchi tabaqa faqihlari: Abu

Yusuf, Imom Muhammmad va Zufarlarni mutlaq darajadagi mujtahidlar ekanini ta'kidlaydi [Marjoniy Ibn Kamol Poshoning Abu Yusuf, Muhammad va Zufarlarni ikkinchi tabaqada, ya'ni "mazhabda mujtahidlar" tabaqasida zikr etganini xato deb, ularni mutlaq darajadagi mujtahidlar deya ta'kidlaydi va bir qator dalillar bilan buni isbotlaydi.][17]. "Masalada mujtahidlar"[Ibn Kamol Poshoga ko'ra, uchinchi tabaqa "masalada mujtahidlar" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifadan rivoyat kelmagan masalalar bo'yicha ijтиҳод qila olish darajasidagi mujtahid faqihlарdir. Ushbu tabaqa faqihlari mazhab asoschisiga usul qoidalari va furu' masalalarida qarshi fikr ayta olmaydilar. Lekin ular Abu Xanifa o'rnatgan qoidalalar asosida, undan rivoyat kelmagan masalalar bo'yicha dalillardan hukmlarni ishlab chiqadilar.] [18] tabaqasi deb nomlangan uchinchi tabaqa vakillari: Al-Xassof, At-Tahoviy va Al-Karxiylar juda ko'p masalalarda Abu Hanifaning qarashlariga qo'shilmaganliklari va ularning usul qoidalari va furu' masalalari o'zlarining qarashlariga ega ekanliklarini aytib o'tadi [Shu bilan Marjoniy ularni "masalada mujtahid" emas, balki, "mazhab ichida mujtahidlar" darjasida ekanliklarini aytmoqchi bo'ladi.][19]. Biroq, Marjoniy Qozixonni ular darajasiga qo'shmaydi.

Marjoniy "as'hob at-taxrij" [Ibn Kamol Poshoga ko'ra, to'rtinchchi tabaqa "as'hobut-taxrij" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar ijтиҳod qilishga umuman qodir emaslar. Lekin usul qoidalarini bilganlari tufayli mazhab sohibi yoki uning biror mujtahid shogirdlaridan rivoyat qilingan ikki ko'rinishga ega mujmal so'zlar va ikki ishni anglatadigan mubham hukmlarga aniqlik va tafsilot kiritishga qodirdirlar.] [20] tabaqasi deb nomlangan to'rtinchchi tabaqa vakillari ichida keltirilgan Abu Bakr Ar-Roziy haqida gapirib, uning muqallid emas, mujtahid darjasida ekanini, shuningdek, uning uchinchi tabaqa vakillaridan ustun turishini dalillar bilan isbotlaydi [Shu bilan Marjoniy Abu Bakr Ar-Roziyni "mazhab ichida mujtahidlar" darjasida ekanligini aytmoqchi bo'ladi.][21]. Shuningdek, Marjoniy "as'hob at-tarjih" [Ibn Kamol Poshoga ko'ra, beshinchchi tabaqa "as'hobut-tarjih" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar muqallidlar bo'lib, ularning ishi ba'zi rivoyatlarni boshqalaridan ustun qo'yish] [22] tabaqasi deb nomlangan beshinchchi tabaqa faqihlari: Quduriy va Burhonuddin Marg'inoniyni Qozixonidan darajada ustun turishlarini ta'kidlagan [Marjoniy: "Ibn Kamol Posho Quduriy va Burhonuddin Marg'inoniyni "as'hob at-tarjih" tabasidan deb aytgan, Qozixonni esa mujtahidlar tabasidan ekanini aytgan, Holbuki, Quduriy Burhonuddindan avval yashagan va undan ilmda ustun bo'lgan. Shunday ekan, Qozixonidan ustun bo'lmasin", deb yozadi. Shuningdek, Marjoniy Burhonuddin Marg'inoniyning Qozixonidan darajada ustun turishini aytib shunday deb yozadi: "Hidoya" sohibi o'z davrining benazir faqihlарidan bo'lgan. Uning davridagi Faxruddin Qozixon va Imom Zaynuddin Al-Attobiy kabi olimlar uning fazli va peshqadamligini e'tirof etganlar".][23].

Imom Laknaviy "Al-Jome' as-Sag'ir" asarining sharhiga yozgan muqaddimasida Ibn Kamol Poshoning faqihlar darajalari bo'yicha so'zlarini keltirib, unga raddiya sifatida Marjoniyning so'zlarini zikr etgan [24]. Marjoniyning tanqidiy qarashlari Qozixonning ilmiy darajasini quyiga tushirishga emas, balki qolgan faqihlarning ham darajalarini yuqori ekanini ko'rsatishga qaratilgan bo'lgan.

Muhammad Abu Zahro ham Ibn Kamol Posho tasnifining ayrim nuqtalariga e'tiroz bildirgan. Abu Zahroning xulosalariga ko'ra, Qozixon mazhab asoschisi bo'lgan "Abu Hanifa va uning shogirdlaridan rivoyat kelmagan masalalarni dalillardan ishlab chiqadigan as'hob at-taxrij" tabaqasiga mansub ekan ma'lum bo'ladi [Abu Zahra ikkinchi tabaqa haqida gapirib, Abu Yusuf va Muhammadni mutlaq darajadagi mujtahidlar darjasida bo'lishganini, lekin Abu Hanifaning mazhabini yoyishga xizmat qilishganini ta'kidlaydi. Uchinchi va to'rtinchchi tabaqa haqida yozib, ular o'rtasida deyarli faqr yo'qligini va ularni bitta tabaqa deb hisoblash to'g'ri ekanini aytadi. "As'hobut-tarjih" deb nomlangan beshinchchi tabaqa bilan to'rtinchchi tabaqa o'rtasidagi farq ham aniq emasligini ta'kidlaydi. Tabaqalar bir-biridan farqli bo'lishi uchun oxirgi uch tabaqadan birini tushirib qoldiri, ularni ikkita tabaqaga: birinchisi: "as'hob at-taxrij" va "as'hob at-tarjih" tabaqalariga bo'lish maqsadga muvofiq ekanini aytadi.][25].

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Qozixonni Abu Bakr Al-Xassof, Abu Ja'far At-Tahoviy, Abul-Hasan Al-Karxiy, Shamsul-a'imma Al-Halvoniy va Shamsul-a'imma As-Saraxsiylar qatorida zikr qilingani uning yuksak ilmiy daraja egasi bo'lganini ko'rsatadi. Taqdijotlar natijalariga ko'ra, Faxruddin O'zjandiy Abu Hanifa va uning shogirdlaridan rivoyat kelmagan masalalarni dalillardan ishlab chiqadigan "as'hob at-taxrij" tabaqasidan bo'lganini aytish mumkin. Bu esa, o'z o'mida alloma ijodini o'rganish tadqiqotchilar uchun qanchalar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Faxruddin O'zjandiyning katta bobosi Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq ibn Abu Nasr ibn Ja'far ibn Sulaymon al-Marg'inoni 477/1084 yili 68 yoshda Marg'inonda vafot etgan [26]. U XI asrda Movarounnahrda fiqh sohasida faoliyat olib borgan yetuk faqihlарidan hisoblanadi.

Sam’oniy va Qurashiy larning keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra, Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq mudarrislik va muftiylik salohiyatiga ega bo‘lgan olti o‘g‘ilni tarbiyalagan. Ularning hammalari uydan birga chiqqanlarida odamlar: “Mana bir uydan olti muftiy chiqib kelishayapti!” - deyishardi[27].

Faxruddin O‘zjandiyning bobosi Shamsul-a’imma Mahmud ibn Abdul-Aziz al-O‘zgandiy yetuk faqihlardan bo‘lib, u o‘zining o‘g‘li Mansur, jiyani Hasan ibn Ali va Faxruddin O‘zjandiylarga fiqh ilmidan dars bergan.

Faxruddin O‘zjandiyning otasi Mansur ibn Mahmud ibn Abdul-Aziz ham faqih bo‘lganligini “Fatovoi Qozixon” asarining oxirgi sahifasida kelgan quyidagi so‘zlardan bilish mumkin. Unda shunday deyilgan: “روصنم نیدلاردب لجألا مامإلا يضاقلا نب نسحلا نساحملابا خيشلا یوبأ یواتف رخآ اذه”. Tarjimasi: “Bu buyuk imom Badruddin Mansurning o‘g‘li Shayx Abul-Mahasin Hasan fatvolarining oxirisidir” [28]. Faxruddin O‘zjandiyning bobosidan ilm olib, uning tarbiyasida bo‘lganidan otasining erta vafot etgan deb, xulosa qilish mumkin.

Faxruddin O‘zjandiyning amakilari va ularning o‘g‘illari faqih bo‘lganliklari haqida ma’lumotlar mavjud [29]. Abdulhay Lakanaviy Faxruddin O‘zjandiyning ustozlaridan va otasining amakivachchasi bo‘lgan Zahiruddin Hasan ibn Ali ibn Abdul-Aziz haqida ma’lumot berib: “Zahiruddin Hasan al-Marg‘inoniyning (vaf. 600/1203 y.) otasi Ali ibn Abdul-Aziz (vaf. 560/1164 y.) va bobosi Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq (vaf. 477/1084 y.), amakisining nevarasi Hasan ibn Mansur (vaf. 592/1195) va singlisining o‘g‘li “Xulosat al-Fatovo” asarining muallifi Tohir ibn Ahmad (vaf. 542/1147) haqida quyida ma’lumotlar keltiriladi...” [30] degan va ularning barchalarini faqih bo‘lganliklarini zikr qilgan.

Tabaqot kitoblarida Faxruddin O‘zjandiyning katta bobolari va amakilarining ismlariga “Marg‘inoniy” nisbasi qo‘sib keltiriladi. Biroq uning bobosi Mahmud ibn Abdul-Azizning ismi “O‘zjandiy” nisbasi bilan keltirilgan [31]. O‘zjand o‘sha davrda shahri siyosiy ahamiyatga ega bo‘lsada, Movarunnahr diyorining chet hududida joylashgan bo‘lgan, aksincha Marg‘inon ilm markazlariga nisbatan yaqin va bir qancha yetuk faqihlarning yetishib chiqqani bilan mashhur bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Faxruddin O‘zjandiyning bobosi Mahmud ibn Abdul-Aziz o‘zining ustoz Shamsul-a’imma Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl as-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.) bilan O‘zgandda bo‘lgani ma’lum [Shamsul-a’imma As-Saraxsiy Buxoro faqihlarining peshvolaridan bo‘lgan. U amirga nasihat qilgani sababli O‘zjandga surgun qilinib, o‘sha yerda 466/1073-480/1087 yillar davomida (o‘n besh yil) zindonda qolgan. Saraxsiy zindonda ekanida biror kitobga qaramasdan shogirdlari vositasida bilan Muhammad ibn ash-Shayboniyning “Zohir ar-Rivoya” imsli to‘plamiga o‘n besh jiddan iborat sharh yozgan.] [32]. Ustozining orqasidan O‘zjandga ilm izlab kelgan Mahmud ibn Abdul-Aziz o‘sha yerda uylanib, joylashgan va “O‘zjandiy” nisbasini olgan. Demak, uning farzandlari va nabiralari ham O‘zjandda tavallud topishgan. Shunlardan xulosa qilib, Faxruddin Qozixonning bobolari va amakilariga “Marg‘inoniy” nisbasi qo‘silsada, uning otasi va o‘ziga “O‘zjandiy” nisbasi qo‘silgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Мухаммад Абдул-Қодир ибн Абул-Вафо Мұхаммад ибн Мұхаммад ал-Қураший ал-Мисрий. Ал-Жавоҳир ал-музий‘а фи табақот ал-ҳанафийя. 5 жилдли / Абдулфаттох Мұхаммад ал-Хұлв таҳрири остида. – Қохира: Ҳижр, 1993. – Ж.2. – Б. 93
2. Кавакжи. Б. 126
3. Исломид Порошо ал-Бағдодий. Ҳадийятул-орифин. 2 жилдли. – Байрут: Дор ихъо ат-турас ал-арабий, 1951. – Ж.1. – Б. 9 (Бундан кейин: Ҳадийятул-орифин.); Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 24; Кавакжи. – Б. 224
4. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. – Ж.2. – Б. 224; Каҳхола. Мўжам. – Ж.1. – Б. 594; Тошкӯпризода. – Ж.2. – Б.252.
5. Ат-Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. – Ж.2. – Б.116; Ал-Қураший. – Ж.2. – Б. 93.
6. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 93; Ат-Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. – Ж.2. – Б. 116; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. – Ж.2. – Б. 224; Каҳхола. Мўжам. – Ж.1. – Б. 594; Тошкӯбризода. Мифтоҳ ас-саода. – Ж.2. – Б. 252
7. Муминов А.К. Роль и место ханафитских ‘улама’ в жизни городов Центрального Мавараннахра (II-VII/VIII-XIII в): Дис. ... докт. ист. наук. – Т.: ТИУ, 2003. – Б. 220 (Бундан кейин: Муминов.)
8. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 336.
9. Тамимий, – Ж:3. –Б. 115

10. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. // Абу ‘Абдурахмон ибн ‘Ақил таҳрири остида. – Миср: Матба‘ат ал-Жабловий, 1977. – Б. 14. (Бундан кейин: Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин.); Ибн Қутлубуғо. Ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий. – Б. 23; Ибн ал-Имод. Шазарот аз-заҳаб. – Ж.6. – Б. 504; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111
11. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
12. Абул-Хусайн Ахмад ибн Мұхаммад ибн Ахмад ибн Жаъфар ибн Ҳамдон ал-Қудурий ал-Бағдодий (362/972-428/1036 йй). Қаранг: Brockelmann, GAL. – Ж.1. – Б. 174 (199)
13. Зайнуддин Қосим ибн Қутлубуғо. Ат-Таржих ва ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий. 1 жилдли / Зиё Юнус таҳрири ва таҳқиқи остида. – Байрут: Дар ал-күтуб ал-ғилмийя, 2002. – Б. 134 (Бундан кейин: Ибн Қутлубуғо. Ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий.)
14. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111.
15. Ҳожи Халифа. Кағыф аз-зунун. – Ж.2. – Б. 144
16. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 13. Шиҳобуддин Абу-Ҳасан Ҳорун ибн Баҳоуддин Ал-Маржоний Ал-Қозоний. Нозуратул-Ҳақ фи фарзияйт ал-Иша ва ин лам йағибиш-шafaқ. 1 жилдли. / Үрхан Идрис ва Абдул-Қодир Салжук таҳрири остида. –Истамбул: Дорул-хикма, 2012. –Б. 193-198 (Бундан кейин: Ал-Маржоний. Нозуратул-Ҳақ.)
17. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
18. Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. –Б. 202
- 19.Шиҳобуддин Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. – Б. 204-209
- 20.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14
- 21.Шиҳобуддин Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. – Б. 210-211.
22. Абул-Ҳасанот Абдул-Ҳай Ал-Лакнавий. Ан-Нофеъ Ал-Кабир шарҳ Ал-Жомеъ ас-Сағир. 1 жилдли. –Караби: Идарат ал-Куръани вал-улум вал-ғисламийя, 1990. – Б. 11-12. (Бундай кейин: Ал-Лакнавий. Ан-Нофеъ Ал-Кабир.)
- 23.Мұхаммад Абу Заҳра. Абу Ҳанифа, ҳаятуху, асруху ва арауҳу ва фиқхуҳу. 1 жилдли. – Қоҳира: Дорул-фикр ал-арабий, 1947. – Б. 501. (Бундай кейин: Абу Заҳра. Абу Ҳанифа.)
- 24.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
- 25.Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. –Б. 202
- 26.Самъоний. Ал-Ансоб. – Ж.11. –Б 249; Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434
- 27.Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434
28. Фатовои Қодихон. УзРФА ШИ № 11228. – Ж. 4. – Б. 503 (Бундан кейин: Фатово Қозихон).
29. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434, 576, 74; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 165, 204, 108; Самъоний. Ал-Ансоб. – Ж.11. –Б 249; Ҳадийат ал-орифин. – Ж.1. – Б. 280 (144)
30. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 108.
31. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.3. – Б. 446; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 342.
- 32.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 262; Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.3. – Б. 78